BOSHLANG’ICH SINF O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA MATN TURLARI

Elmurodova Maftuna Fozil qizi
GulDPI Pedogogika fakulteti 3-bosqich talabasi
Bahromova Feruza Bahriddin qizi
GulDPI Pedagogika fakulteti 3-bosqich talabsi

Annotatsiya: Mazkur tezisda boshlang’ich sinf o‘qish savodxonligi darslaridagi matn turlari haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: O‘qish savodxonligi, matn turlari, fan, matn, dars, tahlil, nutq, 1-sinf, 2-3-4-sinf, qayta ishlash, ijodiy fikr, o‘qish savodxonligi.

Abstract: This thesis deals with types of texts in "Primary grade reading literacy" classes. Abstract: This thesis deals with text types in "Primary grade reading literacy" classes.

Keywords: Reading literacy, text types, science, text, lesson, analysis, speaking, 1st grade, 2-3-4th grade, processing, creative thinking, reading literacy.

Bugungi rivojlanib borayotgan zamonda, ilm-fanga bo‘lgan talab nihoyatda kuchlidir. Shu bois boshlang’ich sinflardayoq o‘quvchilarga yaxshi ta’lim-tarbiya bermoq, ilm-fanga qiziqtirmoq muhim sanaladi. Shu o‘rinda aytish mumkinki, 23.09.2020-yildagi "Ta’lim to‘g’risida"gi Qonunda "Ta’lim — ta’lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko‘nikmalar berishga, shuningdek ularning umumta’lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko‘nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon" - deb kiritilgan. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch bu — ilm-fan, ta’lim va tarbiyadir” - deb bejiz aytgan emas. Ilm-fanga qiziqish yoshlikdan, boshlang’ich sinfdan berilishi ilm-fanni yuqori cho‘qqilarga olib chiqishga katta turtki bo‘ladi.

Matn - nutq ko‘rinishi bo‘lib, vazifasi jihatidan tugal nutqiy butunlik -dir. Har bir matn murakkab tuzilish va mazmun mundarijasiga ega bo‘lib, u og‘zaki hamda yozma ijod namunasi hisoblanadi.

Matn turlari quyidagi asosiy kategoriyalarga bo‘linadi:

1. Hikoya. O‘z ichiga voqealar, xarakterlar va muammolarni oladi. O‘quvchilar uchun qiziqarli va tasavvurni rivojlantiradi.

2. She’riy matn. Ritm, qofiya va metaforalar bilan yozilgan badiiy matn. Hissiyotlarni ifodalashda muhim rol o‘ynaydi.

3. Ma'lumotnoma matnlari. Muayyan mavzu haqida aniq va qisqa ma'lumot beradigan matn. O‘quvchilarga bilimlarni kengaytirishga yordam beradi.

4. Taqdimot matnlari. G‘oyalar yoki mavzularni taqdim etishda foydalaniladi. O‘quvchilarga muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishda yordam beradi.

5. Badiiy matnlar. Fantastik, dramatiq yoki badiiy tasvirlarga ega. Madaniy va estetik hissiyotlarni oshiradi.

6. Hujjatlar. Rasmiymavzularni yoki ma'lumotlarni rasmiy shaklda taqdim etadi. O‘qitishda rasmiy yozuvlarni o‘rganish uchun muhimdir.

7. Esse. Muayyan fikr yoki g‘oyani tahlil qilib, o‘z nuqtai nazarini ifodalaydi. Tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi.

8. Blog va maqolalar. O‘z fikr va tajribalarni baham ko‘radigan matnlar. Zamonaviy yozuv uslublarini o‘rganishga yordam beradi.

Har bir matn turi o‘quvchilarga turli ko‘nikmalarni o‘rgatadi va fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi darslarida matn turlarini ta'lim berish jarayoni muhim o‘rin tutadi. Har bir matn turi o‘quvchilarning o‘zlashtirishini, fikrlashini va mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga yordam beradi.

O‘qitishda yondashuvlar

Qayta ishlash: O‘quvchilarga turli matn turlarini o‘rganib, ularni tahlil qilishni taklif etish.

Ijodiy faoliyat: O‘quvchilardan o‘z matnlarini yozishni so‘rab, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish.

Masalan, 3-sinf “O‘qish savodxonligi” kitobida quyidagi she’riy matnlar o‘rin olgan va ular topishmoqning javobini toping ko‘rinishida berilgan.

—Sayrab tursam suyarlar,
Sayramasam so‘yarlar.
Tushmayin deb qoshiqqa,
Zo‘r beraman qo‘shiqqa. (Bedana)

—"To‘q-to‘q" tumshuq urganim—
Daraxtni qo‘riganim,
Davolayman mo‘rtini,
Tushiraman qurtini. (Qizilishton)

4-sinf o‘qish savodxonligi kitobida esa bilib oling ko‘rinishida quyidagi ma’lumot berilgan:

Rivoyat nima?

"Rivoyat" arab tilidan olingan bo‘lib, "hikoya qilmoq" degan ma’noni bildiradi. Rivoyat – voqea va hodisalarni, inson faoliyatini, ba’zan uydirmalar vositasida, ba’zan esa real tasvirlovchi og’zaki hikoya. Ko‘pincha rivoyat asosida voqelik va tarixiy shaxs bilan bog’liq hodisalar yotadi. Axloqiy qarashlar asosida aytilgan rivoyatlar ham ko‘p. Rivoyatlar xalq tarixi hamda madaniyatini o‘rganishda muhim manbadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Ta’lim to‘g’risida"gi Qonun. 23.09.2020-yil

2. Abdullayeva Q., Rahmonbekova S. „Ona tili darslari (1 -sinf o‘qituvchilari uchun qo‘llanma). - T.: 1999.

3. Abdullayeva Q., Rahmonbekova S. Diktantlar to‘plami,-T.:1997

4. Abdurahmonova E., Grammatika imlo va nutq o‘stirishda tarqatma materiallar.-T.: 1996

5. Almamatov T. Yadgorov Q, Pochchayeva G. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi metodik qo‘llanma. Jizzax - 2006

6. Fuzailov S., Xudoyberganova M., Yo‘ldosheva Sh. Ona tili. 3-sinf. - T.:2019

7. Galperin I. R. "Matn" tushunchasi haqida // "Matn lingvistikasi" ilmiy konferensiyasi materiallari - T. 1. - M., 1974. - B. 67

8. Ikromova R., Gulomova X., Yo‘ldosheva Sh.,. Shodmonqulova D, Ona tili, 4-sinf uchun, Toshkent, 2020

9. 3-sinf "O‘qish savodxonligi" darsligi 2023-y

10. 4-sinf "O‘qish savodxonligi" darsligi 2023-y